

SHEVALAR VA ULARNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI.

*TerDPI talabasi
Ro'ziyeva Umida*

Annotatsiya: Ushbu maqola sheva, dialect va lahjalarning kelib chiqishi, bugungi kundagi ahamiyati, tilimizdagi o'rni haqida qisqacha ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: sheva, lahja, dialect, shevashunoslik, turkiy til, "Devonu lug'atit-turk", "O'zbek xal shevalari lug'ati", tusoq, ezuv, navqan, oyg'og', varsaqi, dovyehcha, morcha,

Tillar ichida eng jarangdor va boy tillar qatoriga turkiy tillarni ham kirg'izish mumkin. Turkiy tilda gaplashuvchi 40 000 dan ortiq bir biriga qardosh millat va elatlardan iborat turkiy xalqlar mavjud. Bizning ona tilimiz ham Turkiy tillar oilasiga kiradi. Demak ona tilimizning lug'at boyligini yuqori deb hisoblash mumkin. Ushbu samaradorlikka o'z hissasini beminnat qo'shadigan bu dialectlar hisoblanadi.

Yurtimizning turli hududlarida yashovchi aholining so'zlashuvdagi farq ularning turli shevalarda so'zlashidan darak beradi.

Ma'lumki O'zbekistonning 13 ta viloyatining dialektikasi har xil, lekin tuman hattoki mahallalarning dialektikasini bir xil deb bo'lmaydi. Bunga misol qilib

Qanquv (Urganch, Xiva, Boysun, Qumqo'rg'on, Sherobod, Dehqonobod) – kinoya, piching. Qashamsham – (Qashqadaryo) – o'jar, qaysar.

Qayirma (Surxondaryo, Qashqadaryo) – sut qo'shilmay pishiriladigan patir. Qidirmoq (Jizzax, Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo) – mehmonga bormoq.

Qiliy (Qirg'izistonning O'sh viloyati, Surxondaryo) – g'ilyay.

Qurdim (Qozog'istonning Qoramurt qishlog'i) – suv singib yo'q bo'lib ketgan joy.

Qurdumqoq (Qashqadaryo, Surxondaryo) – xasis. Lang (Surxondaryo, Samarqand, Qarshi, Urganch, Xiva) – o'lat kabi lahjalarni ko'rsatish mumkin. .

Jahon zamon zinapoyasidan yuqoriga ko'tarilar ekan, til ham jamiyat bilan bir qatorda tamaddunga uchraydi. Ko'plab sivilizatsiyani ko'rgan til tabiiyki o'z shaklini, lug'at tarkibini o'zgartirib boradi. XXI asr texnologik taraqqiyot davri dialektikamizga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi.

Virtual olam rivojlangan sari insonlar o'z g'alar hayotiga va tiliga taqlid qilib, o'z tillari bir chetga tomoshabin sifatida otkazib qo'yishmoqda. Albatda til tashqi manba asosida boyishi yaxshi, ammo bu tilning ichki manbasiga salbiy ta'sir ko'rsatmaslik kerak.

O'zbek milliy tilini tashkil etuvchi turli shevalarni uch guruhga bo'lib o'rganiladi.

- 1) *Qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi.*
- 2) *Qipchoq lahjasi.*
- 3) *O'g'uz lahjasi.*

. Hududiy Lahjalar tovushlar tarkibi, grammatika, so'z yasalishi, leksika nuqtai nazaridan muayyan tafovutlarga ega bo'ladilar.

Masalan: J-lovchi shevalar Qipchoq lahjasiga xos shevalardir. (Surxandaryo, Qashqadaryo va Jizzax.)

Yur-jur, yo'rgak-jo'rgak, yig'lamoq-jilamoq, yulduz-juldiz, yarim- yorti juft so'zi ham *yorim-jorti* kabi fonetik hodisalar elegidan o'tibgina shevaga aylanadi.

Y-lovchi shevalar Qarluq lahjasiga xos shevalar hisoblanadi. (Samarqand, Toshkent, Navoiy va Farg'ona.)

Lahjalarni o'rganishga asosiy va yetakchi manba qilib M.Koshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk" asarini o'rganiladi.

Shevalar bo'yicha ko'pgina tilshunos olimlar izlanishlar olib borishdi. Biz bu olimlar olib borgan izlanishlar natijasi o'laroq quyidagilarni ko'rishimiz mumkin. F.Abdullayevning "Xorazm shevalari", M.Mirzayevning "O'zbek tilining Buxoro gruppasi shevalari", I.Shamsiddinovning "O'zbek tilining Qorako'l shevasi", Sh.Nosirovning "O'zbek tilining Qo'qon shevasi", Q.Muhammadjonovning "Janubiy Qozog'istondagi o'zbek shevalari morfologiyasi", T.Yo'ldoshevning "Tojikistondagi o'zbek shevalari morfologiyasi", G'ozim Olim Yunusovning "O'zbeklahjalari tasnifida bir tajriba".

O'zbek lahjalari to'plangan yagona salmoqli to'plam bu 1971-yilda ikki ming nusxada bosib chiqarilgan "O'zbek xalq shevalari lug'ati" sanaladi.

To'plamda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'izistonning janubiy tumanlari hamda Qoraqalpog'istonda yashovchi o'zbeklarning qarluq, qipchoq, o'g'uz lahjalarida ishlatiladigan ayrim so'zlar jamlangan. Tanlab olingan hudud juda katta, so'zlovchilar ham million nufusdan kam emas. Ushbu lug'atdan joy olgan ba'zi so'zlarni ko'rib chiqmiz:

Tusoq (Qashqadaryo, Surxondaryo) – ikki yoshar urg'ochi qo'y. *Uv* (Xorazm, Surxondaryo, Qashqadaryo) – zahar, og'u. *Varsaqi* (Xorazm, Surxondaryo) – sergap, vaysaqi. *Oyg'og'* (Tojikiston, Surxondaryo) – janjalkash, shaddod, jangari. *Bo'ja* (Surxondaryo) – archa bargi. *Ezuv* (Surxondaryo, Gurlan) – ikki labning tutashgan joyi. *n a v q a n* — tut daraxti. *Vo'y l a p ti* — o'ylabdi, qimran – tuya qimizi, tuxum – mayak – yumirtqa. *Dovychcha* - g'o'ra, narvon – shoti – zangi. *CHumoli* – morcha. *Ona* – ena – aya.

O'zbek shevalarining bugungi ahvoli va masalasi tilshunoslikning asosiy muammolaridan biri sifatida qaraladi. Agar sal befarqroq bo'lsak, kundalik ishlaru

tashvishlar bilan o‘ralashib qolaversak, shevalarimizning bugungi dialektal boyligi va betakror nufuzini ilmiy manbalarda saqlab qolishdan ojiz bo‘lib qolamiz.

Ona tilimizga e‘tiborni yana kuchatirib, maktablarda til va adabiyot o‘qituvchilar ona tilimizga muhabbatni bolalar endigina qo‘liga qalam ushlagan paytdan boshlab uyg‘otish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. T. J. ENAZAROV, V. A. KARIMJONOVA, M. S. ERNAZAROVA, SH. S. MAHMADIYEV, K. G‘. RIXSIYEVA O‘ZBEK DIALEKTOLOGIYASI (o‘quv qo‘llanma) Toshkent “UNIVERSITET” 2012.
2. SHERMATOVA. A. QASHQADARYO O‘ZBEK SHEVALARI. T., 1972
3. RESHETOV V.V., SHOABDURAHMONOV. SH. O‘ZBEK DIALEKTOLOGIYASI. T., 1962.